# O‘ZBEKISTONDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARIDAGI O‘ZGARISHLAR TAHLILI

*Muallif:* ***MURODULLAYEV ASRORBEK***

Xusanova Malohot Mingnorovna. Toshkent arxitekrura qurilish universiteti mustaqil tadqiqotchisi OZbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta’minlash va xalq farovonligini oshirish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu jarayonda sanoat tarmoqlari mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim o‘rin tutib, yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi soha sifatida ishlab chiqarish hajmini oshirish, texnologik yangilanish va eksport salohiyatini mustahkamlashga hissa qo'shmoqda. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi esa nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga, balki bandlikni oshirish va ijtimoiy farovonlikni yaxshilashga ham bevosita ta’sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada OZbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi.

**Kalit so’zlar**: Sanoat, boshqaruv, boshqaruv mexanizmlari, sanoat hududlari, sanoat salohiyati, sanoat tarmoqlar.

Ishlab chiqarish sanoati har bir davlat iqtisodiyotining ustun qismlaridan biri bo‘lib, chiqarish tarmoqlari raqobatbardoshlikni jamiyatning barqarorligi, bandlik darajasi, iqtisodiy milliy o‘sishning zamonaviy barqarorligini rivoji oshirish, xalqaro iqtisodiy saqlash texnologiyalarning daromadning o‘sishi va texnologik rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu sanoat nafaqat xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarni va keng qo‘llanilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ichki bozorda tayyor aylantiruvchi, balki milliy mahsulotlarga iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham qo‘llab-quvvatlovchi asosiy tarmoq sifatida faoliyat olib boradi. Ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi davlatning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu o‘z navbatida iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ishlab ishlab chiqarilgan mahsulotlarga talab ortishi milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirib, importga qaramlik darajasini kamaytirishga imkon beradi. 2014-yilda Respublika ishlab chiqarish sanoati hajmi 68225,7 milliard so‘mni tashkil etib shundan, 14387,2 milliard so‘m (jami ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari hajmining 21,1 %i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatiga, 10839,5 milliard so‘m (jami ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari hajmining 15,9 %i) to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatiga hamda 8997,7 milliard so‘m (jami ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari hajmining 13,2 %i) avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish sanoati hissasiga to‘g‘ri kelgan (2.3-jadval). Shunigdek, 2014-yilda ishlab chiqarish sanoati hajmida ichimliklarni ishlab chiqarish sanoati 2082,9 milliard so‘m bilan 3,1 %ni, kiyim ishlab

chiqarish sanoati 1308,7 milliard so‘m bilan 1,9 %ni, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati 3062,7 milliard so‘m bilan 4,5 %ni, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati 4130,1 milliard so‘m bilan 6,1 %ni, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati 1646,1 milliard so‘m bilan 2,4 %ni, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoati 4771,4 milliard so‘m bilan 7,0 %ni, metallurgiya sanoati 7525,6 milliard so‘m bilan 11,2 %ni, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoati 1402 milliard so‘m bilan 2,1 %ni hamda elektr uskunalar ishlab chiqarish sanoati 1468 milliard so‘m bilan 2,2 %ni tashkil etgan.

**1-jadval**

**Ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari hajmining tarkibi hamda ulush ko‘rsatkichlari**

| Ko‘rsatkichlar | O‘lchov birligi | Yillar | | | | | | | | | | 2023-yilda 2014-yilga nisbatan |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | |
| **Ishlab chiqarish sanoati** | **mlrd. so‘m** | 68225,7 | 78492,3 | 91483,0 | 120686,9 | 189642,6 | 254860,9 | 305928,6 | 378186,4 | 460491,8 | 556382,4 | 8,2 |
| *shu jumladan:* | | | | | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | mlrd. so‘m | 14387,2 | 18511,6 | 22400,5 | 23217,7 | 25256 | 35337,3 | 42314,9 | 48643,3 | 57547,3 | 65678,2 | 4,6 |
| *ulushi* | *foizda* | *21,1* | *23,6* | *24,5* | *19,2* | *13,3* | *13,9* | *13,8* | *12,9* | *12,5* | *11,8* | 0,6 |
| To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | mlrd. so‘m | 10839,5 | 13241,7 | 13335,3 | 16763,3 | 24835,2 | 29946,6 | 36713,9 | 52372,3 | 62850,7 | 71509,8 | 6,6 |
| *ulushi* | *foizda* | *15,9* | *16,9* | *14,6* | *13,9* | *13,1* | *11,8* | *12,0* | *13,8* | *13,6* | *12,9* | 0,8 |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish | mlrd. so‘m | 8997,7 | 7826,3 | 4112,3 | 10509,6 | 26631,3 | 33091,2 | 33594,9 | 32167,6 | 51396,2 | 76904,9 | 8,5 |
| *ulushi* | *foizda* | *13,2* | *10,0* | *4,5* | *8,7* | *14,0* | *13,0* | *11,0* | *8,5* | *11,2* | *13,8* | 1,0 |

Ko‘rilayotgan davrda boshqa ishlab chiqarish sanoati mahsulotlarining hajmi 6603.8 milliard so‘mni tashkil etib, jami ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari hajmining 9,6 %ini tashkil etgan (2.4-jadval). 2023-yilda Respublika ishlab chiqarish sanoati hajmi 556382,4 milliard so‘mni tashkil etib shundan, 65678,2 milliard so‘m (jami ishlab 14,0 13,0 11,0 8,5 11,2 13,8 2023- yilda 2014- yilga nisbatan 8,2 4,6 0,6 6,6 0,8 8,5 1,0 chiqarish sanoati hajmidagi ulushi yuqori bo‘gan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatlarining ulushi 2014-yilga nisbatan mos ravishda 9,3 % va 3,0 %ga pastlaganligini ko‘rishimiz mumkin. Ishlab chiqarish sanoati hajmi iqtisodiy barqarorlik va chiqarish sanoati mahsulotlari hajmining 11,8 %i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatiga, 71509,8 milliard so‘m (jami ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari hajmining 12,9 %i) to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatiga hamda 76904,9 milliard so‘m (jami ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari hajmining 13.8 %i) avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish sanoati hissasiga to‘g‘ri kelgan. 2023-yilda ishlab dinamikasini sanoatning baholashda rivojlanish asosiy ko‘rsatkichdir. Bu hajmning o‘sishi iqtisodiy

rivojlanishning kuchayishini, milliy mahsulot ishlab chiqarishdagi o‘sish va yangi ish o rinlari yaratishni anglatadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoati hajmi mamlakatning eksport salohiyati va ichki talabini ta’minlashda ham muhim o‘rin tutadi. Davlat va xususiy sektorlarning ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga qaratilgan sarmoyalari diversifikatsiya qilish iqtisodiyotni texnologik yangilanishni rag‘batlantiradi. Sanoat ishlab chiqarish hajmini sanoat mahsulotlarini va turli mezonlar asosida guruhlash, ularning o‘sish tendensiyalarini aniqlash, shuningdek, iqtisodiy samaradorlik darajasini tahlil qilish maqsadida guruhlash metodidan foydalanildi. Guruhlash metodi Adabiyotlar nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi, balki resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash, innovatsion yondashuvlar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishni optimallashtirish, ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlikni oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

## Adabiyotlar:

1. Metyakubov A.D. Qurilish materiallari sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish [Текст], monog. - T: 2021. 183b.

2. Nurimbetov R.I., Metyakubov A.D., “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda qirilish materiallarini ishlab chiqarish sanoatining rivojlanish tendensiyalari” [Текст]. Arxitektura i stroitelstvo Uzbekistana. Jurnal. 2017-y. 37-39 bet. (18.00.00. №7)

3. Nikolaev V.P. Vvedenie v rbinochnuyu ekonomiku stroitelstva // Ekonomika stroitelstva. - 1994. - №

4. - S.3-12. 4. Kas I. Sistema upravleniya ekonomikoy: plan i rbinok // problembi teorii i praktiki upravleniya. 2008. №2. 59 -s.

5. Qosimov E., Qurilish ashyolari: Oliy o‘quv yurtlarining talabalari uchun darslik. — T.: “Mehnat”, 2004, —3 b.

6. Cherkasov G.I. Rbinok: regulirovanie rbinka: Uchebnoe posobie. - M.: YuNITI-DANA. 2004. 150 - s.

7. Bondarenko A. A. Organizatsionno - ekonomicheskiy mexanizm razvitiya predpriyatiy prombishlennosti stroitelnbix materialov. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. FGBOU VO “Rossiyskiy ekonomicheskiy universitet im. G. V. Plexanova”. Moskva - 2019. S – 29

Muallif : MURODULLAYEV ASRORBEK